

## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



### 2019 yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


RAQAMLAR	
1824,4 mlrd.so'm Sanoat ishlab chiqarish hajmi	108,8 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
1037,8 mlrd.so'm Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	118,9 % o'sish sur'ati
56,9 % Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	26,4 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 1824,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,8 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 4,0 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 9,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 22,7 % ni tashkil qildi. Shu bilan birga elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash – 5,6 % ga kamayish kuzatildi.

### 2019 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



## 2018 yilning yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,01 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0004 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1751,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,9% ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,6%, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 28,9%, oziq-ovqat mahsulotlarini Ishlab chiqarish 15,0 %ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,6 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 28,9 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 15,0 %

**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-mart</i>	<i>2018 yil yanvar-mart</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		34,8	68,9
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		75,1	47,8
Engil avtomobillar		10388	7311
Yuk avtomobilari – dona		1950	1284
Aroq – ming litr		208	400
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		5,9	6,0
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr		300,0	330,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		19677,9	18323,1
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		2019 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		469,2	390,3
Milliy non (yopgan non) – tonna		138,1	59,8
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		5810,0	7076,0
Xo'jaliksovuni – tonna		2717	3103
Paxta tolasi –tonna		26751	33710,0
Paxta chigititonna		42468	52465,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 34,1 mln kVtsga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 30 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Paxta tolasi 6959 tonnaga;
5. Paxta chigiti 9997 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 62,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,4% ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 94,4% ni tashkil etdi.

Suv kanalizatsiya utilizatsiya tomonidan mahsulotlar hajmi 10,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6% ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 82,0% chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 18,0% ni tashkil etdi.




## 2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinish turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 45,7 foiz, Urganch shahri 19,2 foiz, Xonqa 8,0 foiz Bog'ot 5,6 foiz, Shovot 4,7 foiz va Gurlan tumani 3,9 foizni va eng past bo'lgan Urganch tumani 1,9 foiz, Xiva tumani 1,0 foiz hamda 0,7 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

## 2018 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




**2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-mart</i>	<i>2018 yil yanvar-mart</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>1824,4</b>	<b>1250,2</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,01</b>	<b>0,01</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,01	0,01
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>1751,2</b>	<b>1183,8</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	273,9	212,2
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	37,9	36,3
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	518,1	353,3
Kiyim ishlab chiqarish	6,4	5,8
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,0	1,4
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	0,9	0,8
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	3,1	2,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,1	0,1
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,01	0,01
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	3,6	1,8
Asosiy farmasevtika	2,0	1,4
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	5,4	4,3
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	38,0	31,1
Metallurgiya sanoati	4,7	2,6
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	24,5	23,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,002	0,002
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	4,4	4,2
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	36,4	28,3


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-mart	2018 yil yanvar-mart
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	758,7	445,0
Mebel ishlab chiqarish	4,2	3,8
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	22,9	22,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	4,1	2,9
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>62,8</b>	<b>58,1</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>10,4</b>	<b>8,2</b>

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-mart oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.**




## Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-mart oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,3 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-mart oylarida bu ko'rsatkich 44,0 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,1 foizdan 4,2 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 51,1 foizdan 47,7 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 2,0 mldr.so'mlik (2018 yil yanvar-mart oylarida 1,4 mldr.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 803,0 mldr.so'mlik (479,3 mldr.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 76,7 mldr.so'mlik (63,9 mldr.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 869,4 mldr.so'mlik (639,1 mldr.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### 2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




**2018 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 992,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 106,9 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-mart oylarida Xazorasp tumani 2115,6 ming so'mdan 2019 yil yanvar-mart oylarida 3432,9 ming so'mga, Urganch shahri 2086,4 ming so'mdan 2467,8 ming so'mga, Xonqa tumani 495,3 ming so'mdan 793,5 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


**2019 yil yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)**




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 1037,8 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 118,9 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 215,7 mlrd.so'mni va 822,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 101,1 foiz va 124,7 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 56,9 foizni (2018 yil yanvar-mart oylarida 69,8 foiz) tashkil qildi.


### **2019 yil yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)**



### **2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)**



**2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga  
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 564,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 116,9 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-mart oylarida Xazorasp tumani 2178,0 ming so'mdan 2019 yil yanvar-mart oylarida 2744,8 ming so'mga, Shovot tumani 144,5 ming so'mdan 153,6 ming so'mga, Urganch tumani 141,9 ming so'mda 160,0 ming so'mga, Bo'got tumani 144,4 ming so'mdan 160,7 ming so'mga oshgani kuzatildi.